

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ

**ҚЎҚОН ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ
ГЕОГРАФИЯ ВА ИҚТИСОДИЙ БИЛИМ АСОСЛАРИ КАФЕДРАСИ**



**ИЛМ-ФАН ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ
РИВОЖЛАНТИРИШДА ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИНГ
ЎРНИ**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯСИ МАТЕРИАЛЛАРИ**

Қўқон, 21 май, 2021 йил.



Қўқон - 2021

o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Sababi, qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy islohotlarni bir vaqtda qishloq joylardagi aholi maskanlariga tadbiq etish qiyin kechmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, Farg'ona vodiysida miqdoriy jihatdan cheklangan yer-suv resurslariga antropogen ta'sir ko'lami yildan-yilga ortib borayotgan, geoeekologik vaziyat ko'p hollarda noqulay bo'lgan Farg'ona vodiysida hududdan foydalanishda geoeekologik barqarorlikni, ya'ni eekologik va xo'jalik muvozanatini (balansini) ta'minlash, agrodemografik yukni kamaytirish, etnoeekologik madaniyatni tiklash va boyitish asosida landshaft talabiga moslash-tirish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega vazifadir.

OZIQ-OVQAT VA DORIVOR O'SIMLIK – ALLOCHRUSA GYPSOPHILOIDES NING TARQALISHI

Mamadaliyeva Ra'no Zakirjonovna

tayanch doktorant, Qo'qon DPI

[*rmamadaliyeva@yahoo.com*](mailto:rmamadaliyeva@yahoo.com)

Xo'jayev Vahobjon Umarovich

k.f.d., professor, Qo'qon DPI

Markaziy Osiyoda o'simliklarning 8000 turi mavjud bo'lib, ushbu o'simliklarning 4300 turi O'zbekistonda uchraydi. O'zbekiston florasi boy va xilma-xil bo'lib, qadim zamonlardan buyon ajdodlarimiz turli xil kasalliklarni davolash uchun o'simliklardan foydalanganlar. Markaziy Osiyoda o'simlik dunyosini o'rganish o'rta asrlarda boshlandi va Abu Rayhon Al-Beruniy, Abu Ali Ibn Sinoning bu sohadagi ishlari dunyo tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davrni ochdi. Bugungi kunda o'simliklardan ajratib olinayotgan organik moddalar ya'ni, alkaloidlar, izoprenoidlar, yurak va triterpen glikozidlari, ekdisteroidlar, uglevodlar, oqsillar, ligninlar va boshqalarning tuzilishi, biologik ahamiyati o'rganilib, farmasevtika sohasiga tadbiq qilinmoqda [1].

Allochrusa gypsophiloides Rgl. (mahalliy nomi Beh yoki Yetmak) - O'rta Osiyoda yaxshi ma'lum bo'lgan endemik o'simlikdir. Bu o'simlik Caryophyllaceae oilasiga mansub ko'p yillik tur bo'lib, yer osti qismi kuchli o'q ildiz va ustki qismi juda shoxlangan, sharsimon buta ko'rinishida chakalakzor hosil qilib o'sadi. *A.gypsophiloides* asosan g'arbiy Tyan Shan, Pomir Oloyning tog' oldi cho'l dashtlarida, daryolarning quruq yonbag'irlarida, dengiz sathidan 400-1300 metr balandlikdagi shag'alli tuproqda o'sadi [2]. *A.gypsophiloides* qimmatbaho oziq-ovqat va dorivor o'simlik bo'lib, ildizida 30% gacha saponin saqlaydi. Bu o'simlikdan olinadigan saponinlar aralashmasidan shirinliklar va tabiiy yuvish vositalari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Xalq tibbiyotida bu o'simlikning ildizlari damlamasi bronxitda balg'am ko'chiruvchi, xoleretik, diuretik va laksativ

sifatida qo'llaniladi. Oshqozon-ichak, teri va tanosil kasalliklari, shuningdek taloq, jigar va buyrak kasalliklarini davolashda ildizidan choy damlab ichiladi.

Yaqinda *A.gypsophiloides* ni tabiiy populyatsiyalarini tadqiq qilish natijasida ushbu o'simlikning tabiiy tarqalish maydonlari sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi. Inson faoliyati noyob tur populyatsiyasining hayotiy holatiga va o'simlik urug'larining yangilanishiga salbiy ta'sir qilmoqda [3]. *A.gypsophiloides* tabiiy sharoitda o'simlikning besh yoshdan hosil bo'ladigan urug'lari orqali ko'payadi. Urug'larning hosildorligi past va ular hosilni yig'ib olgandan keyin pishib yetilish davri, uzoq vaqtda unib chiqishi, unib chiqqan ko'chatlarning notekis tarqalishi natijasida o'simlikning tabiiy chakalakzorlari kamayib bormoqda [4]. Quruq ildizlarning yig'ishning yillik miqdori 700-800 tonnaga yetadi. Muntazam va tizimsiz yig'ish natijasida *A.gypsophiloides* populyatsiyasi keskin kamayib ketgan, natijada bu o'simlik O'zbekiston Qizil kitobidagi noyob turlar ro'yhatiga kiritildi [5].

Yo'qolib borayotgan turlarning saqlab qolish shartlaridan biri urug' unib chiqishining biologik xususiyatlarini, optimal saqlash sharoitlarini o'rganish va unib chiqish samaradorligini oshirishdir. Bundan tashqari o'simlik manbalaridan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarni saqlab qolish – o'simlikning biologik va kimyoviy jihatdan to'liq o'rganilishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov N. The chemistry of plant substances in Uzbekistan. Chemistry of Natural Compounds, Vol. 31, No. 1, 1995
2. Mursaliyeva V., Imanbayeva A. Micropropagation of Turkestan soap root *Allochrusa gypsophiloides* – Natural source of saponins. International Journal of Secondary Metabolite. 2020, 7, 1, 1-7.
3. Gemedzhieva N., Mursaliyeva V., Mukhanov T. Оценка современного состояния природных популяций *Allochrusa gypsophiloides* News of The National Academy of Science of the Republic Kazakhstan. Serial Biological and Medicinal, 2016, 1, 22-29.
4. Bespaev S. *Allochrusa gypsophiloides* in Kazakhstan: Morphology, Systematics, Phytocenology, Tests in Culture. BSc Thesis, Kazakh State University, Almaty, Kazakhstan.
5. O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi. 2009, 1, 216.

***PHRAGMITES COMMUNIS* YER USTKI QISMI BENZINLI FRAKSIYASINING KIMYOVIY TARKIBI**

Отамирзаева М.Х. НАМАНГАН ВИЛОЯТИ ДАРЁ БЎЙИ МУҲОФАЗА ҚИЛАНАДИГАН ЗОНАЛАРИНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	75
Jobborov A. Tojiboyeva M. YOSHLARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA “MUQADDAS QADAMJOYLAR” NI O’RNI.....	80
Қўзибоева О.М., Расулов Э., Хайдарова М. ЖАНУБИЙ ҒАРБИЙ ФАРҒОНА ДАРЁЛАРИДА КОНУССИМОН ЛАНДШАФТ КОМПЛЕКСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ЛАНДШАФТ МЕЛИОРАТИВ ЁНДАШИШ.....	82
Xalimova M. R., Egamnazarova M. BUG‘DOY O‘SIMLIGI ZARARKUNANDALARIGA QARSHI KURASHDA BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASH	86
Nazarov H.Ё., Xusanov Sh.Sh. FARG‘ONA VILOYATI HUDUDINI REKREATION RESURSLARINING – GEOMORFOLOGIK SHAKLLANISHI.....	88
Тошматова Ш.Р., Исмоилова О. ҚЎҚОН ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ АФИДОФАУНАСИНИ ЎРГАНИШГА ОИД ДАСЛАБКИ ИЗЛАНИШЛАР.....	91
Исақов В. Ю., Юсупова М. А., Муқимов З. А. АРЗИҚ ҚУМЛИ ЧЎЛ ТУПРОҚЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	95
Рўзиматов Р. Ё., Урманов Х. Н. ТУРКИСТОН АРСЛОНҚУЙРУҚ (<i>LEONURUS TURKESTANIKUS</i>) ЎСИМЛИГИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРҚАЛИШИ, ТАВСИФИ ВА АҲАМИЯТИ.....	98
Berdiyev G‘.X., Haydarova M. M., Moydinov N.B. O‘RMON RESUSLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA ULARNI QAYTA TIKLASH.....	101
Isaqov V.Yu., Qoraboyev X.V. INDIGOFERA O‘SIMLIGINING RIVOJLANISH TARIXI.....	103
O‘ktamova S.M. FARG'ONA VODIYSI ARID HUDUDLARINING LANDSHAFT – EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASH	105
Otajonov Sh.Э., Sotvoldiyeva O‘.M., Mahmudova M.M. FARG‘ONA VILOYATINING EKOLGIK BARQAROR RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI.....	108
Mamadaliyeva R.Z., Xo‘jayev V. U. OZIQ-OVQAT VA DORIVOR O‘SIMLIK – <i>ALLOCHRUSA GYPSOPHILOIDES</i> NING TARQALISHI.....	111
Azimov N. Sh., Xo‘jayev V. U. <i>PHRAGMITES COMMUNIS</i> YER USTKI QISMI BENZINLI FRAKSIYASINING KIMYOVIY TARKIBI.....	112
Акбаров Ф. А. ШИРИН МИЯ ЎСИМЛИГИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	113
Isaqov M. Yu., Nabiyev X., Djurabayev M.A. BODOM VA YONG‘OQ MOYLARINING TARKIBIDAGI YOG‘ KISLOTALARINI TAXLILI.....	118
Xikmatullayev I.L., Xo‘jayev V.U. <i>PHYSALIS ANGULATA</i> O‘SIMLIGINING AN‘ANAVIY VA ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI.....	120
Мелиев М. С., Хусанов Ш. Ш. ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ.....	121
Axmedov M. I., Axmedova F. S., Usmonova Y. A. YER OSTI SUVLARI VA ULARNING TUPROQQA TASIRI.....	125
Axmedova F. S. SUVLARNING IFLOSLANISHI VA ULARNI TOZALASH USULLARI.....	127
Xalimova M., Abdurahmonova M. ZAMIN MUSAFFOLIKKA MUHTOJ.....	130